

**INGLIZ VA O`ZBEK TILLARIDA WEDDING/TO`Y KONSEPTINING TALQINI VA
UNING CHOG`ISHTIRMA ASOSLARIDAN NAMUNALAR**

Nuriddinova Nodirabegim Nuriddin qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Ilmiy rahbar: **Uralova Oysuluv Poyon qizi**, Termiz davlat pedagogika institute
dotsenti, f.f.f.d (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o`zbek tillarida wedding/to`y konsepti, uning leksik maydonida o`zaro o`xshash va farqli jihatlarining ma`no mazmuni haqida so`z boradi. Shuningdek, lingvokulturologik analizlar orqali ikki xalqning to`y marosimlariga oid etnografik ma`lumotlar haqida ham fikr bildirilgan.

Kalit so`zlar: konsept, to`y konsepti, leksik maydon, milliy madaniy birliklar, lingvokulturologik tilshunoslik, etnografiya.

**EXAMPLES OF THE INTERPRETATION OF THE WEDDING CONCEPT AND ITS
COMBINATION BASIS IN ENGLISH AND UZBEK**

Nuriddinova Nodirabegim Nuriddin kizi

Termiz University of Economics and Service

Scientific supervisor: **Uralova Aysuluv Poyon**, associate professor of Termiz State
Pedagogical Institute, ph.f.f.d. (PhD)

Abstract. This article talks about the meaning of the concept of wedding in English and Uzbek, its similarities and differences in the lexical field. Also, an opinion was expressed about the ethnographic information about the wedding ceremonies of the two peoples through linguistic and cultural analysis.

Key words: concept, wedding concept, lexical field, national cultural units, linguocultural linguistics, ethnography.

ПРИМЕРЫ ТОЛКОВАНИЯ ПОНЯТИЯ СВАДЬБА И ЕГО КОМБИНИРОВАННОЙ
ОСНОВЫ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Нуриддинова - Нодирабегим Нуриддина кизи

Термезский университет экономики и сервиса

Научный руководитель: Уралова Айсулв Поён кизи, доцент Термезского государственного педагогического института, кандидат педагогических наук.

Абстрактный. В данной статье говорится о значении понятия свадьба в английском и узбекском языках, его сходствах и различиях в лексическом поле. Также было высказано мнение об этнографических сведениях о свадебных обрядах двух народов посредством лингвокультурологического анализа.

Ключевые слова: концепт, свадебный концепт, лексическое поле, интернациональные культурные единицы, лингвокультуроллингвистика, этнография.

KIRISH

Ma`lumki, olamning lisoniy manzarasi tahlilida insonni tafakkurga oid milliy madaniy unsurlardan holi tarzda tasavvur qilib bo`lmaydi. Bugungi kunda, tilshunoslik ilmida yangi sohalarning vujudga kelishi matn, til muammolari bilan bog`liq masalalarning yechimini topishda katta samara bermoqda. Jumladan, hozirgi kun tilshunoslari semantika, kognitologiya, lingvokultrologiya, psixolingvistika, sotsolingvistika kabi ko`plab til o`rganishga oid yangi yo`nalishlarga tayanib ish ko`rmoqdalar. Shulardan eng dolzarb ahamiyatga ega bo`lganlaridan biri, "til va madaniyatning uzviy aloqadorligini, uning shakillanishi va rivojlanishini o`zida aks ettiradigan hodisalar – til va madaniyatni birgalikda o`rganadigan alohida ilmiy soha- lingvokultrologiyadir" [4,1]. Insonning bilish faoliyati bilan shug`illanadigan kognitiv lingvistikaning markaziy tushunchalaridan biri bo`lgan "konsept" atamasi lingvokultrologiyada ko`p qo`llaniladigan unsir ekanligi, P. Dilbarxon Abdullajon qizining "Zamonaviy tilshunoslikda konsept tushunchasi" maqolasida ko`rsatib o`tilgan [3,1]. Tilshunoslikda ko`p qirrali tushunchalardan biri

konsept lotin tilidagi “konceptus”<tushuncha> soʻzining soʻzma soʻz tarjimasi boʻlib, XX asrning birinchi choragida rus faylasufi S.Askaldov tomonidan ilmiy munosabatga kiritilgan. Oʻtgan asrning 80-yillarigacha tushuncha soʻziga sinonim sifatida ishlatilgan boʻlsa, bugungi kunda keng qamrovga egaligini kuzatish mumkin. Konsept bir tomondan insonning mental dunyosiga kirsa, boshqa bir tomondan inson konsept yordamida madaniyatga kirib, unga taʼsir ham koʻrsatishi mumkin. Jumladan, N. Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yoʻllarini izlab”, N. Qurbonnazarovanning “Surxondaryo vohasi toʻy marosimi etnografizmlarining semantik va lingvomadaniy tadqiqi” nomli PhD ilmiy ishi, L.Uzoqovanning “oʻzbek va ingliz tillaridagi “toʻy” leksemasi bilan bogʻliq birliklarning lingvokultrologik tadqiqi” kabi maqolasi, ingliz olimlaridan Bradford Jones yetti yillik izlanishlari davomida toʻy konseptiga oid birliklarning roʻyxatini ommaga tushunarli tarzda tuzib chiqqan. Taniqli buyuk adibimiz Tohir Malik tabiri bilan aytganda: “Toʻy- orzu-havaslarga yetilgan saodatli damlardir”[5]. Toʻy oʻzbek madaniyatida millat bilan bogʻliq tarzda qadimdan mavjud boʻlgan, xalqning turmushi bilan bogʻliq oʻta eʼzozlanadigan urf-odatlarini oʻz ichiga olgan, qadriyat darajasiga koʻtarilgan muhim marosimdir. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da : “toʻy konsepti koʻpincha bazim, tomoshalar bilan oʻtkaziladigan baʼzi marosimlarning umumiy nomi. 1. Qudalar oʻrtasidagi kelishuvga muvofiq kuyov tomonidan qiz tomonga beriladigan pul, sarpom-suruq, masalliq va hu kabilar majmui. 2. Biror voqea hodisaga bagʻishlab ziyofat va oʻyin-kulgular bilan oʻtkaziladigan tantanalar” ekanligi koʻrsatib oʻtilgan[2].

Toʻy konseptini ingliz va oʻzbek tillarida semantik struktur hamda lingvokultrologik jihatdan tahlil qilib quydagi oʻxshashliklar va farqlar yuzaga kelganligini kuzatishimiz mumkin:

Oʻxshashliklar:

- unashtiruv marosimi- engagement party;
- nikoh toʻyi- wedding ceremony;

- aqiqa to`y- a sip and see party;
- xatna to`yi- newborn circumcisions (judayam shaxsiy fikrga qarab xatna qilinadi, yoki yangi tug`ilgan chaqaloqda biron kasallik bo`lsa);
- uy to`yi- housewarming party;
- ekin to`y- harvest festival...

To`y konseptining nikoh to`yi bilan bog`liq leksik maydonidagi o`xshash va farqli jihatlar:

O`xshashliklar:

- kelin va kuyov – bride and groom;
- qo`lini so`ramoq – to proposal;
- to`y- wedding;
- kuyovjo`ra- bestman;
- kelinning do`sti- bridesmaid;
- nikoh vadasi- merrige vows...

Farqlar:

Ingliz madaniyatida qadimdan mavjud :

- flower girl- to`y kuni keyin-kuyov yonidan gul sohib ketuvchi qiz;
- ring bearer- uzuklarni olib chiqadigan odam,odatda yosh bolalar;
- wedding bells- to`ydan so`ng ikki yosh rasman oila qurganligini ifodalovchi qo`ng`iroqlar...

O`zbek madaniyatida mavjud:

- kelin salom- to`ydan so`ng kelinni kelganda ko`r,sepini yoyganda ko`r ma`nosida o`tkaziladigan marosim[1];
- charlari – to`ydan so`ng o`tkaziladigan,kelin va kuyovning ota-onalari bir birlarini yanada yaqindan tanishlari va suhbat qilishlari uchun o`tkaziladigan marosim...

va shu kabi ko`plab ham tilshunoslik ilmi uchun ham ikki xalq vakillariga qiziqarli ma`lumotlarni ko`rishimiz mumkin.

XULOSA

Ko`rib chiqilgan tahlillar natijasida shuni aytish mumkinki,ikkala madaniyatda ham to`y konsepti muhim ahamiyatlidir. Ingliz urf-odatlarining bajarilishga qat`iy turishi, o`zbek milliy urf-odatlari o`z o`rnini yo`qotmaganligi bilan ajralib turadi. To`y konsepti juda keng tushuncha bo`lib lisoniy manzarada turli leksik, paremiologik va sintaktik vositalarni ham o`z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:

1. N. Qurbonnazarovanning , Surxondaryo vohasi to`y marosimi etnografizmlarining semantik va lingvomadaniy tadqiqi. – Termiz,2021. -B-15
2. O`zbek tilining izohli lug`ati.5 jildlik.4-jild. – Toshkent: O`zbekiston milliy ensiklopediyasi,2008. – 608 bet-229b.
- 3.Pirnazarova, D.A (2022). ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA KONSEPT TUSHUNCHASI. Tafakkur manzili,(146-148 b)
4. Odilov, A. A (2021). LINGVOKULTROLOGIYA FANINING YUZAGA KELISH TARIXI. SCIENTIFIC PROGRESS, VOLUME 2, (page 1376-1379).
- 5.Tohir Malik (2017) TENG -TENGI BILAN BAXTLIDIR. Sharq-ziyo-zakovat nashriyoti,2017(495,5)